

AKSIYADORLIK JAMIYATLARDA JORIY AKTIVLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

Toshpo'latov Diyorbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

2-kurs magistratura talabasi

Email: d919205878@gmail.com

IMPROVING THE AUDIT OF CURRENT ASSETS IN JOINT-STOCK COMPANIES

Toshpo'latov Diyorbek

Tashkent State University of Economics

2nd-year Master's Degree Student

Email: d919205878@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida joriy aktivlar auditini tashkil etish, uni takomillashtirish va zamonaviy talablarga moslashtirish masalalari har tomonlama tahlil qilingan. Joriy aktivlar tarkibiga kiruvchi naqd pul mablag'lari, debitorlik qarzlari, tovar-moddiy zaxiralar, oldindan to'langan xarajatlar va boshqa qisqa muddatli aktivlar korxonaning likvidligi, to'lovga qobiliyatligi va umumiy moliyaviy barqarorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida qaraladi. Shu bois ularni to'g'ri hisobga olish, baholash va auditdan o'tkazish korxonada moliyaviy intizomning ta'minlanishi hamda hisobotlarning ishonchliligi uchun muhim ahamiyatga ega.

Maqolada joriy aktivlar auditi jarayonida uchraydigan amaliy muammolar — inventarizatsiyaning yetarlicha o'tkazilmasligi, debitorlik qarzlarning o'sib borishi, ichki nazoratning sustligi, hujjatlashtirishdagi kamchiliklar va auditorlar malakasining yetarli emasligi — ilmiy manbalar va real misollar asosida tahlil qilingan. Ushbu muammolarni bartaraf etish

maqsadida besh bosqichli audit dasturi taklif etilib, unda zaxiralarni tekshirish, debitorlik qarzlarni baholash, moliyaviy investitsiyalarni nazorat qilish, naqd pul operatsiyalarini tahlil qilish va moliyaviy hisobotlardagi aks ettirishning to'g'riligini baholash kabi asosiy yo'nalishlar yoritilgan.

Tadqiqot natijalari audit samaradorligini oshirish uchun xavfga asoslangan yondashuvni qo'llash, ichki nazorat tizimlarini mustahkamlash, raqamli texnologiyalar va elektron hujjat aylanishini joriy etish, auditorlar malakasini oshirish, xalqaro audit standartlari (ISA) va moliyaviy hisobot standartlariga rioya qilish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi korxonalar moliyaviy hisobotlarining shaffofligini oshiradi, aktivlar ustidan nazoratni kuchaytiradi hamda aksiyadorlar, investorlar va kreditorlar ishonchini mustahkamlaydi.

Kalit so'zlar: joriy aktivlar, audit, aksiyadorlik jamiyati, ichki nazorat, inventarizatsiya, moliyaviy hisobot.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the organization and improvement of current asset auditing in joint-stock companies, emphasizing its importance in ensuring financial transparency and stability. Current assets—such as cash, accounts receivable, inventories, prepaid expenses, and other short-term resources—play a crucial role in determining a company's liquidity, solvency, and overall financial sustainability. Therefore, their accurate recognition, measurement, documentation, and audit are essential for maintaining financial discipline and ensuring the reliability of corporate financial statements.

The study identifies key practical challenges that frequently arise during the auditing of current assets. These include insufficient inventory verification, the increase of overdue receivables, weak internal control systems, improper documentation practices, and inadequate auditor qualifications. Based on scientific sources, international standards, and practical observations, the article examines the implications of these issues and proposes effective solutions. A structured five-stage audit model is introduced, covering inventory assessment, verification of accounts receivable, evaluation of short-term financial investments, review of cash transactions, and assessment of the accuracy of financial reporting.

The findings highlight the necessity of adopting a risk-based audit approach, strengthening internal control mechanisms, implementing digital tools and electronic document workflows, and improving auditor competence through continuous training. Furthermore, adherence to International Standards on Auditing (ISA) and international financial reporting requirements is considered

vital for enhancing audit quality. Implementing these recommendations will increase the reliability of financial statements, improve transparency in the management of current assets, and strengthen the confidence of shareholders, investors, creditors, and other stakeholders.

Key words: current assets, audit, joint-stock company, internal control, inventory, financial reporting.

Kirish. Hozirgi globallashuv va bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan davrda korxonalar moliyaviy barqarorligi ularning aktivlari holati bilan bevosita bog'liqdir. Joriy aktivlar xo'jalik yurituvchi subyektga tez orada daromad keltirishi yoki to'lovqobiliyatini ta'minlashi kutiladigan resurslar bo'lib, ularga to'g'ri baho berish va ularni nazorat qilish kompaniya faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi ayniqsa muhim, chunki bunday kompaniyalar ko'plab aksiyadorlar va investorlar manfaatlariga xizmat qiladi. Shu bois O'zbekistonda ham korxonalarda yillik moliyaviy hisobotlarning mustaqil auditorlar tomonidan tekshirilishi talab etiladi. 2021-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, auditorlik tekshiruvlari xalqaro audit standartlari asosida amalga oshirilishi belgilandi. Bu esa audit jarayonini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Joriy aktivlar auditi mazmunan korxonaning kassa, bank, zaxira va debitorlik holatini tahlil qilish hamda ularning moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirilganligini tasdiqlashdir. Mamlakatimizda bo'layotgan iqtisodiy islohotlar sharoitida, ayniqsa aksiyadorlik jamiyatlarida, audit tizimini

xalqaro amaliyotlar asosida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etdi. Masalan, yirik xalqaro moliyaviy mojarolardan biri bo'lgan Parmalat korporatsiyasidagi inqiroz 38% aktivlar (taxminan 4,9 mlrd AQSh dollari) mavjud bo'lmagan bank hisobvarag'ida "saqlangan" holda ko'rsatilgani natijasida kelib chiqqan. Ushbu holat joriy aktivlar auditi qanchalik sinchiklab va professional darajada olib borilishi lozimligini yaqqol isbotlaydi. Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarida auditorlik tekshiruvlari nafaqat qonuniy talab, balki kompaniya rahbariyati va aksiyadorlar uchun ham zaruratga aylangan – chunki sifatli audit investorlarga ishonch beradi, moliyaviy intizomni oshiradi hamda korxonaning bozordagi barqarorligini ta'minlaydi.

Shu ma'noda, joriy aktivlar auditini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Mavjud muammolarni aniqlash va bartaraf etish uchun milliy va xorijiy tajribalarni o'rganish, statistik ma'lumotlar tahlili va ilg'or uslublarni joriy qilish talab etiladi. Quyida ushbu maqolada tadqiqot metodlari va manbalar tahlili, natijalar va takliflar yoritib beriladi.

Adabiyotlar sharhi. Aksiyadorlik jamiyatlarida joriy aktivlar auditi masalalarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili ushbu yo'nalish bo'yicha yetarli nazariy asos shakllanganini ko'rsatadi. Joriy aktivlar hisobi va ularni audit qilishga bag'ishlangan eng muhim mahalliy manbalardan biri R. Dusmuratov va Mavlyanovanning (2024) monografiyasidir. Mualliflar joriy aktivlarning iqtisodiy mazmuni, ularning tarkibi, buxgalteriya hisobi va audit jarayonidagi tahliliy usullarni batafsil yoritib, ushbu aktivlar bo'yicha nazorat mexanizmlarini qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Biroq ushbu asar ko'proq nazariy yondashuvlarni qamrab olib,

amaliy riskga asoslangan audit metodlarini to'liq ko'rsatmaydi.

Auditni rejalashtirish va riskka yo'naltirilgan audit strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha eng muhim asarlardan biri Pickett (2006) tomonidan taklif etilgan konsepsiyadir. Unga ko'ra, auditorlik tekshiruvlari audit xavfini baholash tamoyillariga asoslanishi, resurslar va auditorlik protseduralari yuqori xavfli uchastkalarga yo'naltirilishi lozim. Bu yondashuv ayniqsa joriy aktivlar auditi uchun dolzarb bo'lib, tovar-moddiy zaxiralar, debitorlik qarzlari va pul mablag'lari auditida keng qo'llanadi.

Auditning nazariy asoslari va amaliy ko'rsatmalarini taqdim etuvchi yana bir muhim manba Messier, Glover, Prawitt va Christensen (2025) tomonidan yozilgan "Auditing and Assurance Services" asaridir. Mualliflar auditorlik jarayonining asosiy bosqichlari — rejalashtirish, dalillar to'plash, ichki nazorat tizimini baholash va auditorlik xulosasini shakllantirish tartibini batafsil yoritgan holda auditorlik faoliyatining umumiy metodologik asosini ishlab chiqadi. Ushbu yondashuv joriy aktivlar auditi uchun ham qo'llanilishi mumkin, chunki aktivlar auditi auditorlik jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Aktivlar auditi bo'yicha tor doiradagi ixtisoslashgan manba sifatida Bragg (2025) tomonidan taqdim etilgan "How to Audit Fixed Assets" qo'llanmasi ta'kidlashga arziydi. Garchi ushbu asar asosiy vositalar auditiga bag'ishlangan bo'lsa-da, undagi aktivlarning mavjudligini tekshirish, baholash, hujjatlarni tasdiqlash va inventarizatsiya o'tkazish bo'yicha takliflar joriy aktivlar auditi uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

Mahalliy adabiyotlarda ham auditorlik faoliyatiga oid bir qator ilmiy ishlar mavjud.

Hamdamov, Ilxomov, Karimov, Masharipov va Hojiyev (2021) joriy aktivlar va moliyaviy-xo'jalik faoliyati auditi bo'yicha o'z ilmiy qarashlarini ilgari surib, auditning milliy amaliyoti, hujjatlashtirish va nazorat mexanizmlarini batafsil yoritadi. Shuningdek, Hojiyev, Meliyev va Jumanov (2021) tomonidan taklif etilgan auditorlik yondashuvlari moliyaviy hisobotlarning haqiqiyligini tekshirish va audit xulosasini shakllantirish tamoyillarini asoslashda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy adabiyotlar joriy aktivlarning mazmuni, hisobini yuritish va umumiy auditorlik yondashuvlarini yetarli darajada ochib beradi. Biroq xalqaro standartlar, raqamli audit vositalari va riskka yo'naltirilgan audit konsepsiyalarini aynan O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari amaliyotiga tatbiq etish masalalari to'liq yoritilmagan. Shu sababli joriy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish bo'yicha yangi metodologik yondashuvlar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Material va metod. Ushbu tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarida joriy aktivlar auditini takomillashtirish masalasi nazariy va amaliy yondashuvlar asosida o'rganildi. Avvalo, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, xalqaro audit standartlari (ISA) va milliy audit me'yorlari tahlil qilinib, joriy aktivlarni tekshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy asoslar aniqlashtirildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar kontent tahlili asosida solishtirilib, joriy aktivlar auditi bo'yicha ilg'or usullar hamda mavjud ilmiy yondashuvlar umumlashtirildi.

Tadqiqot jarayonida analitik-taqqoslash metodidan foydalanilib, joriy aktivlar auditi bo'yicha xalqaro tajriba va milliy amaliyot

o'rtasidagi farq va o'xshashliklar aniqlangan. Bu esa auditning zamonaviy vositalari, ichki nazorat tizimi va riskka yo'naltirilgan audit modeli kabi elementlarning qo'llanish darajasini baholash imkonini berdi. Shuningdek, amaliy materiallarni o'rganish orqali korxonalarda uchraydigan odatiy xatoliklar va auditdagi kamchiliklar tahlil qilindi.

Tadqiqotni puxta tashkil etish maqsadida auditorlik tekshiruvining umumlashtirilgan modeli ishlab chiqildi va joriy aktivlar auditi bosqichma-bosqich modellashdirildi. Natijalarni aniq ifodalash uchun statistik ma'lumotlar grafik va jadval ko'rinishida tahlil qilindi. Metodologiyani bunday uyg'unlashgan yondashuvi joriy aktivlar auditi bo'yicha xulosalar va takliflarning nazariy hamda amaliy ahamiyatini ta'minladi.

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlarida joriy aktivlarni tekshirish uchun bosqichma-bosqich audit dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dastur 5 bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqichda muayyan turdagi aktivlarni chuqur auditorlik tahlilidan o'tkazish nazarda tutiladi. Quyida har bir bosqich mazmuni keltirilgan:

Birinchi bosqich. Tovar-moddiy zaxiralar harakati auditi. Bu bosqichda korxonaning omborxonasidagi barcha moddiy boyliklar hisobini tekshirish o'tkaziladi. Jumladan:

Moddiy boyliklarni sotib olish va qabul qilish operatsiyalarining buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilganini audit qilish.

Ombordagi zaxiralar harakatini tahliliy hisobga olish (sklad hisobi) yuritilishini tekshirish.

Moddiy boyliklardan foydalanish va sarflanish hisobini nazorat qilish, shuningdek kamomadlar, yo'qotishlar yoki o'g'irlik

holatlari aniqlansa, ularni hujjatlashtirish va hisobdan chiqarish tartibini tekshirish.

Zaxiralarni jamlangan (integral) hisobga olishning to'g'ri tashkil etilganini baholash (ya'ni, ombordagi qoldiqlar Bosh kitob va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlariga muvofiqligini tasdiqlash).

Ikkinchi bosqich. QQS hisob-kitobi va debitorlik qarzlarni auditi. Bu bosqichda hisob-kitob hujjatlari va soliq hisobotlari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor quyidagilarga qaratiladi:

QQS bo'yicha soliq hisobotlari va buxgalteriya ma'lumotlarini taqqoslab, tafovutlar mavjud-mavjud emasligini aniqlash. Xususan, savdo (sotuv) kitobidagi va buxgalteriya registrlaridagi ma'lumotlarning mutanosibligi tekshiriladi.

Hisob-fakturalarni rasmiylashtirish va ularni soliq organlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish jarayonining o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirilganini nazorat qilish.

Debitorlik qarzlarni hisobini tekshirish: qarzдорlar bilan tuzilgan shartnomalar, tovar va xizmatlar yetkazib berilishining hujjatlarga muvofiqligi, debitorlik qarzlarning vujudga kelishi va ularning qaytarilish muddati o'rganiladi.

Shubhali va umidsiz debitorlik qarzlarni aniqlash va ularni hisobdan chiqarish tartib-qoidalariga rioya qilinganini tekshirish (masalan, qarzni undirish imkoni yo'qligi hujjatlar bilan tasdiqlanganmi, direktiv organlar ruxsati olinganmi va hokazo).

Uchinchi bosqich. Moliyaviy investitsiyalar auditi. Bu yerda aksiyadorlik jamiyatining qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalari (agar mavjud bo'lsa) tekshiriladi. Audit quyidagi jarayonlarni qamrab oladi:

Korxonaning boshqa subyektlar ustav kapitaliga qo'shgan ulushlari yoki sotib olgan qisqa muddatli qimmatli qog'ozlari mavjud bo'lsa, ularning maqsadga muvofiqligi va samadorligi baholanadi (ya'ni, bunday investitsiyalar qanday maqsadda va qaysi sharoitda qilinganini asoslovchi hujjatlar tekshiriladi).

Moliyaviy investitsiyalardan kelgan daromadlar (dividendlar, foizlar) hisob-kitoblari tekshiriladi, ular buxgalteriya hisobotlarida to'g'ri aks ettirilganmi – masalan, qo'shma korxonadagi ulushdan tushgan foyda hisobotda ko'rsatilgan-ko'rsatilmaganini aniqlanadi.

Investitsiyalar balansda belgilangan baholash uslubiyotiga muvofiq aks ettirilganini tekshirish (qisqa muddatli investitsiyalar bozorda sotish qiymati bo'yicha yoki haqqoniy qiymat bo'yicha hisobga olinishi talablariga rioya qilish).

To'rtinchi bosqich. Naqd pul mablag'lari va hisob-kitob hujjatlari auditi. Korxonaning kassa va bank hisob raqamlaridagi pul mablag'lari hamda boshqa pul hujjatlari (cheklar, orderlar va boshqalar) ustidan nazorat qilinadi. Bu bosqichda:

Korxona kassasida mavjud naqd pullar va boshqa qimmatbaho qog'ozlarning haqiqiy mavjudligi kutilmagan holda naqd sanaq (inventarizatsiya) yo'li bilan tekshiriladi. Kassadagi qoldiq summalarini buxgalteriya hisobi bilan solishtiriladi.

Kassa hujjatlarini rasmiylashtirish qoidalariga rioya qilingan-qilinmagani tekshiriladi (kassa kirim-orderlari va chiqim-orderlari to'g'ri to'ldirilganmi, mas'ullar imzosi bor-yo'qligi va hokazo).

Bank hisob raqamlaridagi qoldiqlarni bankdan olingan ma'lumotnomalar (bank statement) asosida tasdiqlash, bank bilan

yaroqlantirish dalolatnomasi (bank reconciliation) tuzilganini tekshirish.

Buxgalteriya balansida (1-shakl) pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy aktivlar to'g'ri ko'rsatilganini aniqlash: Bosh kitob ko'rsatkichlari bilan moliyaviy hisobotdagi summalar mutanosibligi nazorat qilinadi.

Beshinchi bosqich. Yakuniy bosqich – joriy aktivlarning moliyaviy hisobotlarda aks ettirilishini tekshirish. Ushbu yakuniy bosqichda auditor avvalgi bosqichlarda to'plangan dalillar asosida kompaniya moliyaviy hisobotida joriy aktivlar to'g'ri aks ettirilganligi yuzasidan umumiy xulosa hosil qiladi. Xususan:

Balansda joriy aktivlar toifalari (pul mablag'lari, debitorlar, zaxiralar va b.) to'liq va tegishli baholarda ko'rsatilganini tasdiqlash. Bu degani, masalan, zaxiralar "aylanma mablag'lar" tarkibida to'g'ri guruhlangan, ularning tannarxi yoki bozor qiymati to'g'ri aks ettirilgan.


Moliyaviy hisobotning tegishli izoh va ilovalarida (agar mavjud bo'lsa) joriy aktivlar bo'yicha zarur ma'lumotlar berilganini tekshirish. Masalan, "Debitorlik qarzarlar" izohida muddati o'tgan qarzarlar summasi ko'rsatilib, ular bo'yicha zahira (rezerv) ajratilganligi yoki yo'qligi haqida ma'lumot berilgan-bo'lmaganini aniqlash.

Joriy aktivlarga doir auditorlik ishchi hujjatlarida topilgan kamchiliklar moliyaviy hisobotda tuzatib aks ettirilganlik darajasini baholash (ya'ni, auditor aniqlagan xatolar rahbariyat tomonidan tuzatildimi yoki xatolar ahamiyatsiz deb topilib, o'zgarishsiz qoldirildimi).

Munozara. Yuqoridagi bosqichlar orqali auditor korxonaning barcha asosiy aylanma mablag'lari yo'nalishlarini qamrab oladi.

Albatta, har bir bosqichda auditorlik xavfi va ahamiyatlilik darajasidan kelib chiqib turli auditorlik protseduralari qo'llaniladi. Masalan, inventarizatsiya jarayonini yaxshilash maqsadida auditorlar tovar zaxiralarining mavjudligi va holatini to'liq jismoniy tekshiruvdan o'tkazishi, shikastlangan yoki eskirgan buyumlar bor-yo'qligini aniqlashi kerak. Debitorlik qarzlarini tekshirishda esa qarzdorlar bilan muvofiqlashtirish xatlari (confirmation) yuborish, shubhali qarzarlar uchun ajratilgan zaxiralarning yetarililigi baholash, debitorlik qarzarlar qarish jadvali to'g'ri tuzilganini tekshirish zarur. Auditor, shuningdek, analitik protseduralar yordamida joriy aktivlar balansida favqulodda o'zgarishlar yoki nomutanosibliklar mavjudligini aniqlashi va ularning sabablarini tahlil qilishi lozim. Bunday tahliliy yondashuv korxonadagi tendensiyalarni sanoat ko'rsatkichlari yoki o'tgan davrlar bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi.

Yuqorida taklif etilgan auditorlik dasturini qo'llash natijasida kutilayotgan natijalar quyidagilar: joriy aktivlar hisobida aniqlik va shaffoflik oshadi, moddiy zaxiralardagi kamomad va ortiqcha qoliqlar o'z vaqtida aniqlanib, bartaraf etiladi, debitorlik qarzlarning qaytuvchanligi yaxshilanadi, moliyaviy hisobotlarda aktivlar bilan bog'liq xatoliklar kamayadi. Natijada korxonaning umumiy moliyaviy holati va likvidligi yaxshilanib, investorlar va kreditorlar uchun hisobotlarning ishonchliligi kuchayadi. Quyida keltirilgan grafik va jadvalda joriy aktivlar tuzilmasi hamda audit jarayonida uchraydigan muammolar tahlili aks ettirilgan.



1-rasm Aksiyadorlik jamiyatlarida joriy aktivlar tarkibi¹

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, korxonalarda joriy aktivlarning asosiy qismini **tovar**-moddiy zaxiralar (ombordagi xomashyo, tayyor mahsulotlar va materiallar) tashkil etadi – diagrammada u taxminan 40% ulushga ega. Keyingi yirik ulush debitorlik qarzlar hissasiga to‘g‘ri keladi (30%). Naqd pul mablag‘lari odatda joriy aktivlarning 15–20% ini tashkil etsa, qolgan qismini boshqa joriy aktivlar (oldindan to‘langan xarajatlar, qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar va h.k.) egallaydi. Albatta, bu nisbatlar korxona faoliyat yuritayotgan sohaga va biznes modeliga qarab o‘zgarishi mumkin; masalan, savdo korxonalarida zaxiralar ulushi yuqori bo‘lishi, xizmat ko‘rsatish sohasida esa aksincha, debitorlik qarzlar va naqd pul ulushi balandroq bo‘lishi mumkin. Biroq umumiy tendensiya shuki, ko‘pchilik aksiyadorlik jamiyatlarida aylanma mablag‘larning asosiy tarkibi zaxiralar va qisqa muddatli debitorlik

qarzlar hisobidan shakllanadi. Shu sababli bu unsurlar auditi eng ko‘p e‘tibor talab qiladi.

Muhim muammolar va ularni hal etish: Joriy aktivlar auditi jarayonida korxonaning turli ichki muammolari va tizimli kamchiliklari ham yuzaga chiqadi. Quyidagi **1-jadvalda** audit amaliyotida tez-tez uchraydigan ba‘zi muammo va kamchiliklar hamda ularni hal etish bo‘yicha tavsiya etilayotgan yechimlar keltirilgan.

¹ Muallif ishi

1-jadval

Joriy aktivlar auditi jarayonidagi asosiy muammolar va qisqa yechimlar²

Muammo	Tavsif	Ixcham yechim
Inventarizatsiya va zaxiralar hisobi sustligi	Ombordagi zaxiralar ustidan nazorat yetarli emasligi tufayli kamomad yoki ortiqcha qoldiq paydo bo'ladi.	Muntazam inventarizatsiya; zamonaviy ombor dasturlari; eskirgan tovarlarni alohida hisoblash.
Debitorlik qarzlarning o'sishi	To'lovlarning kechikishi likvidlikka salbiy ta'sir qiladi va yomon qarzlarni ulushini oshiradi.	Debitorlikni faol boshqarish; kredit limitlari; shubhali qarzlarni uchun zaxira; kvartal tahlil.
Ichki nazoratning sustligi	Vazifalar ajratilmagani sababli xatolik va suiiste'mol xavfi ortadi.	Vazifalarni taqsimlash; ichki nazoratni kuchaytirish; audit qo'mitasi faoliyatini yo'lga qo'yish.
Hujjatlashtirishdagi xatolar	Bitimlar noto'g'ri rasmiylashtirilsa, auditda shubha va tafovutlar yuzaga keladi.	Xodimlarni o'qitish; elektron hujjat aylanishi; doimiy hujjat mosligini tekshirish.
Auditorlar malakasining pastligi	Yetarli bilim bo'lmasa, xatolar aniqlanmay qolishi mumkin.	ISA bo'yicha treninglar; sertifikatlash; xorijiy tajribani o'rganish.

Yuqoridagi 1-jadvalda keltirilganidek, joriy aktivlar auditi samaradorligini oshirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. **Inventarizatsiya jarayonlarini muntazam o'tkazish, ichki nazoratni kuchaytirish va auditorlarning professional salohiyatini oshirish** kabi choralar audit sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Xuddi shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq qilish (masalan, elektron hujjat aylanishi, ma'lumotlar tahlili dasturlari) auditorlik

tekshiruvlarini tezlashtirishi va xato aniqlash darajasini oshirishi mumkin. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar va taklif etilgan yechimlar kompleks ravishda amalga oshirilsa, aksiyadorlik jamiyatlarida joriy aktivlar auditi natijadorligi oshib, moliyaviy hisobotlarda aniqlik va shaffoflik ta'minlanadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar asosida umumiy xulosaga keladigan bo'lsak, aksiyadorlik jamiyatlarida joriy aktivlar auditi

² Muallif ishi

tizimini takomillashtirish bo'yicha konkret va amaliy takliflar quyidagilardan iborat:

Ichki nazorat tizimini mustahkamlash. Joriy aktivlarni boshqarish va hisobga olish jarayonlarida ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Bunda vakolat va majburiyatlarni to'g'ri taqsimlash (masalan, bir xodim ombor hisobini yuritsa, boshqasi ushbu hisobni nazorat qilishi), moddiy javobgarlik va hujjatlarni tasdiqlash tartiblarini joriy etish lozim. Ichki audit xizmatini rivojlantirish orqali korxona doirasida muntazam tekshiruvlar o'tkazib borilishi tavsiya etiladi.

Riskka yo'naltirilgan auditorlik yondashuvini keng joriy etish. Auditorlik tashkilotlari tekshiruvlar vaqtida auditorlik tavakkalchiligini hisobga olgan holda eng muhim va xavfli sohalarga e'tibor qaratishlari kerak. Xususan, joriy aktivlar tarkibida qiymat jihatidan yirik va qonunbuzilish ehtimoli yuqori bo'lgan moddalarga (masalan, yirik debitorlar, katta hajmdagi zaxiralar) batafsil auditorlik protseduralarini qo'llash zarur. Bunday riskka asoslangan yondashuv auditorlik resurslaridan samarali foydalanishga va aniqlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Auditorlarning malakasini oshirish va mustaqilligini ta'minlash. Tashqi auditorlar hamda ichki auditorlar uchun muntazam ravishda kasbiy malaka oshirish treninglarini tashkil etish lozim. Bu treninglarda xalqaro audit standartlari (ISA), zamonaviy auditorlik texnikalari va raqamli texnologiyalar bo'yicha yangi bilimlar berilishi maqsadga muvofiqdir. Auditorlar jahon amaliyotidagi yangiliklardan xabardor bo'lishi uchun konferensiya va seminarlerde ishtirokini rag'batlantirish kerak. Auditorlar mustaqilligini saqlash ham dolzarb: auditorlik tashkilotlari va mijoz o'rtasidagi munosabatlarda axloqiy me'yorlarga qat'iy

rioya qilinishi, auditorlarga bosim o'tkazilmasligi kafolatlanishi lozim. Buning uchun aksiyadorlik jamiyatlarida Kuzatuv kengashi huzurida mustaqil Audit qo'mitalarini faoliyat yuritishi muhim.

Axborot texnologiyalarini joriy etish. Auditorlik tekshiruvlarini samarali o'tkazish uchun elektron hujjat aylanishi, buxgalteriya hisobi va audit uchun maxsus dasturiy ta'minotlardan foydalanishni kengaytirish lozim. Masalan, elektron buxgalteriya bazasi auditorlarga uzoq vaqt talab etiladigan qo'lda tekshirishlar o'rnini bosuvchi ma'lumotlar tahlilini amalga oshirishga imkon beradi. Shuningdek, katta hajmdagi ma'lumotlarni (big data) tahlil qilish orqali joriy aktivlar harakatida g'ayrioddiy tendensiyalarni aniqlash, qiyosiy ko'rsatkichlarni tez hisoblash imkoni paydo bo'ladi. Raqamli vositalardan foydalanish auditori vaqtini tejash barobarida xatolarni kamaytiradi va aniqlikni oshiradi.

Xalqaro standartlar va ilg'or amaliyotlarni qo'llash. Milliy audit amaliyotini xalqaro talablarga yaqinlashtirish maqsadga muvofiq. Shu jumladan, moliyaviy hisobotlarda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) ga bosqichma-bosqich o'tish va auditorlik tekshiruvlarini Xalqaro auditorlik standartlari (ISA) asosida amalga oshirish lozimligi mutasaddi organlar tomonidan tavsiya etilgan. Yangi qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham audit jarayonlarini xalqaro standartlar asosida olib borish dasturiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Bu, bir tomondan, auditorlarga dunyo miqyosida e'tirof etilgan me'yorlarga amal qilish majburiyatini yuklasa, ikkinchi tomondan, xorijiy investorlar uchun hisobotlarning tushunarliqligini va qabul qilinarliqligini oshiradi.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish. Auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni doimiy ravishda yangilab borish, xususan, joriy aktivlar auditi bilan bog'liq milliy standartlar va ko'rsatmalarni ishlab chiqish zarur. Masalan, joriy aktivlar hisobini yuritish va audit qilish bo'yicha milliy qo'llanmalar yaratilsa, auditorlar va buxgalterlar uchun yagona metodik asos shakllanadi. Shuningdek, auditorlik xulosalarining sifati ustidan davlat nazoratini (masalan, Moliya vazirligi yoki professional uyushmalar orqali) kuchaytirish, audit firmalari faoliyatini reyting tizimi orqali

baholab borish kabi chora-tadbirlar ham taklif etiladi.

Yuqoridagi takliflarning barchasi konkret va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan yechimlar bo'lib, ularni tatbiq etish aksiyadorlik jamiyatlarida joriy aktivlar auditi sifati va ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada korxonalarining moliyaviy holatini to'g'ri baholash, investorlar huquqlarini himoya qilish va umuman olganda mamlakatimizda auditga bo'lgan ishonchni mustahkamlash kabi strategik maqsadlarga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi. (2021). *Auditorlik faoliyati to'g'risida Qonun* (O'RQ-677). Lex.uz.
2. Bragg, S. M. (2025). *How to audit fixed assets*. AccountingTools.
3. Dusmuratov, R. D., & Mavlyanova, D. M. (2024). *Joriy aktivlar: Buxgalteriya hisobi, tahlili va auditi*. Toshkent.
4. Hamdamov, B. K., Ilxomov, Sh. I., Karimov, N. F., Masharipov, O. A., & Hojiyev, M. S. (2021). *Amaliy audit*. Toshkent.
5. Hojiyev, M. S., Meliyev, I. I., & Jumanov, S. A. (2021). *Moliyaviy hisobot auditi*. Toshkent.
6. Pickett, K. H. S. (2006). *Audit planning: A risk-based approach*. John Wiley & Sons.
7. Messier, W. F., Glover, S. M., Prawitt, D. F., & Christensen, B. (2025). *Auditing and assurance services: A systematic approach*. McGraw-Hill.
8. Yarkulova, M., & Abdusattarov, N. (2025). Nomoddiy aktivlar auditini takomillashtirish (Asakabank misolida). *Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar jurnali*, 2(4), 539–546.
9. International Auditing and Assurance Standards Board. (2024). *International Standards on Auditing (ISA)*. IFAC.
10. International Accounting Standards Board. (2023). *International Financial Reporting Standards (IFRS)*. IASB Publications.
11. Arens, A. A., Elder, R. J., & Beasley, M. S. (2019). *Auditing and assurance services: An integrated approach*. Pearson.
12. Whittington, O. R., & Pany, K. (2016). *Principles of auditing and other assurance services*. McGraw-Hill.
13. Boynton, W., Johnson, R., & Kell, W. (2005). *Modern auditing*. John Wiley & Sons.
14. Hayes, R., Wallage, P., & Gortemaker, H. (2014). *Principles of auditing: An introduction to international standards on auditing*. Pearson.



15. Singh, H. (2020). Internal control systems and fraud prevention in corporate entities. *Journal of Accounting and Finance*, 12(3), 55–67.